

ORIENTAL JOURNAL OF MEDICINE AND NATURAL SCIENCES

Open Access, Peer Reviewed Journal

Scientific Journal



- Medicine
- Pharmaceuticals
- Biology
- Chemistry
- Geology
- Agriculture



+998 33 5668868

www.innoworld.net



**INNOVATIVE
WORLD**

**ORIENTAL JOURNAL OF
MEDICINE AND NATURAL SCIENCES**

**Volume 2, Issue 3
2025**

Journal has been listed in different indexings



The official website of the journal:

www.innoworld.net

Andijon-2025



BOLALARDA VA CHAQALOQLARDA UCHRAYDIGAN O'TKIR YUQUMLI QOQSHOL KASALLIGINI KELITIRIB CHIQARUVCHI OMILLAR: KASALLIK KLINIKASI VA UNI OLDINI OLISH.

Sattorova Sevinch Obidjonovna -

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali tibbiy
profilaktika
fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda butun dunyoda bolalar o'rtasida turli xil yuqumli kasalliklar soni ortib boryapdi. Bu kasalliklar bolalarni sog'ligiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, nogiron bo'lib qolishi va xatto o'linga ham olib kelishi holatlari kuzatilmoqda. Shu sababli Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti bolalar o'rtasida tarqalayotgan turli xil yuqumli kasalliklarga qarshi kurash borasida juda ko'p va samarali ishlar olib bormoqda. Biz ushbu maqolada bolalar va chaqaloqlar orasida keng tarqalib dolzarb muammolarga, og'ir asoratlarga sabab bo'layotgan qoqshol kasalligini keltirib chiqaruvchi omillar, kasallikning klinik kechishi, qo'zg'atuvchining o'zidan ajratayotgan toksinini inson organizmga ta'siri, davolash va uni oldini olish masalalariga to'xtalamiz.

Kalit so'zlar: Qoqshol, Tetanus, Yuqish yo'llari, Turlari, Klinik belgilari, Tetanospazmin, Tetanogemolizin, AKDS vaktsinasi, Davolash, Profilaktika.

Аннотация: Сегодня во всем мире увеличивается число различных инфекционных заболеваний среди детей. Имеются случаи, когда эти заболевания серьезно влияют на здоровье детей, вызывая инвалидность и даже смерть. Именно поэтому Всемирная организация здравоохранения проводит большую и эффективную работу по борьбе с различными инфекционными заболеваниями, распространяющимися среди детей. В данной статье мы рассмотрим факторы, вызывающие столбняк — широко распространенную и острую проблему среди детей и младенцев, а также клиническое течение заболевания, воздействие выделяемого возбудителем токсина на организм человека, его лечение и профилактику.

Ключевые слова: Столбняк, Пути передачи, Типы, Клинические признаки, Тетаноспазм, Тетаногемолизин, Вакцина АДТ, Лечение, Профилактика.

Abstract: Today, the number of various infectious diseases among children is increasing worldwide. There are cases where these diseases seriously affect the health of children, causing disability and even death. That is why the World Health Organization is working hard and effectively to control various infectious diseases spreading among children. In this article we will consider the factors that cause tetanus, a widespread and acute problem among children and infants, as well as the clinical course of the

disease, the impact of the toxin released by the causative agent on the human body, its treatment and prevention.

Keywords: Tetanus, Pathways of transmission, Types, Clinical signs, Tetanospasmine, Tetanomolysin, ADT vaccine, Treatment, Prevention.

Asosiy qism: Qoqshol (lot. Tetanus) – asosan yosh bolalar va chaqaloqlar o'rtasida ko'p uchrab asab tizimining shikastlanishi va skelet mushaklarining tonik tirishishi, umumiy talvasalar bilan namoyon bo'ladigan sapronoz bakterial o'tkir yuqumli kasallikdir. Patogenning yuqishi kontakt mexanizm orqali sodir bo'ladi. Aksariyat hollarda bu kasallik bolalar o'rtasida tarqalishiga ularning tuproq bilan noto'g'ri aloqada bo'lishi hamda ota-onalarning bunga beparvolik bilan munosabat bildirishi yoxud aholining tibbiy madaniyati yetarli darajada emasligi sabab bo'lmoqda. Masalan, 2022-yil 1-yanvar kuni yil hisobi holatiga ko'ra, respublikamizda bu kasallikka chalinganlar soni ming birlikda 2 000 tani tashkil etdi. Bu ko'rsatkichning 80 % ini chaqaloqlar va 15 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar tashkil qilsa, qolgan foizlarni o'rta yoshlilar va keksalar band qilgan. Kasallanish va o'lim holatlarining eng ko'p foizi qishloq joylarida kuzatilgan.

Qoqsholda o'lim darajasi juda yuqori bo'lib, zamonaviy davolash usullari qo'llanilganda bemorlarning o'lim darajasi 17-25 % ga, profilaktik tadbirlar o'tkazilmagan, malakali tibbiy yordam mavjud bo'lmagan hududlarda esa bemorlarning o'lim darajasi qariyb 95 % ga yetdi. 2010-yilda dunyoda ushbu kasallik tufayli 61 000 ga yaqin o'lim holatlari qayd etilgan. Ammo, qayd qilinmagan holatlar va kasallikning sezilarli ifodalanmagan shakllari ehtimolligini hisobga olgan holda, dunyoda qoqsholdan umumiy yo'qotishlar soni yiliga 350-400 ming kishini tashkil qilishi mumkin. Shuning uchun qoqshol kasalligini aholi va bolalar o'rtasida erta tashxislash, og'ir va o'ta og'ir turlarini kamaytirish, yuqish yo'li, keltirib chiqaruvchi omil, kasallik qo'zg'atuvchisi, klinik belgilari, uning diagnostikasi haqida bilishimiz hamda kasallikka qarshi umumiy va maxsus profilaktika chora tadbirlarini ko'rishni o'rganishimiz kerak.

Qoqsholni keltirib chiqaruvchi omil bu ekzotoksin ajratuvchi, harakatchan, spora hosil qiladigan, tayoqcha shaklidagi, anaerob ya'ni kislorodsiz sharoitda rivojlanadigan – Clostridium tetani deb nomlanuvchi qo'zg'atuvchidir. Qo'zg'atuvchi faqat tirik organizmning kisloroddan mahrum bo'lgan to'qimalariga kirganda o'z patogen xususiyatini namoyon qiladi. Ayniqsa, nekroz bilan tug'uvchi, sanchuvchi yoki chuqur cho'ntaklarga ega jarohatlarda anaerobioz sharoit hosil bo'lishi tufayli katta xavf tug'diradi.

Kasallik chuqur jarohatlarda va terining shilliq qavatlarining shikastlanishida, kuyishda va muzlashda, tug'ruq paytida, chaqaloqning kindigi steril bo'lmagan asbob bilan kesilganda va kindik yarachasi ifloslanganda, shuningdek gangrena, absess, yotoq yarada va boshqalarda rivojlanishi mumkin. Zararlanishning tez-tez uchraydigan sabablari oyoqning mikrojarohatlari – shikastlanishlar, o'tkir jismlar kirishi, zirapchalar, zaharli hasharotlarning (o'rgimchak kabilar) chaqishi sanaladi. Bundan tashqari,

qo'zg'atuvchi tuproqqa najas bilan birga tushib, o'z hayot faoliyatini uzoq muddat saqlab turadi. Shu sababli kasallik teri orqali yoki ochiq jarohatni tuproq bilan ifloslanishi orqali ham yuqishi mumkin.

Qoqshol toksini ikki turdagi modda saqlaydi:

- Tetanospazmin asab tizimiga ta'sir qilib, ko'ndalang-targ'il mushaklarning tirishishlarini chaqiradi;

- Tetanogemolizin qondagi eritrositlarning gemoliziga olib keladi;

Qoqshol tayoqchasi toksini nerv tolalari oxirlariga, orqa miya va bosh miyaga ta'sir etadi. Toksik-simpatik nerv sistemasi tonusining oshishi, taxikardiya, aritmiya, gipertoniya, periferik tomirlar spazmi, ko'p terlashni keltirib chiqaradi. Mushaklarning tarangligi shikastlangan oyoq-qo'ldan qarama-qarshi tomondagisiga, keyin gavda, bo'yin, boshga tarqaladi, so'ngra talvasalar paydo bo'ladi. Nafas olish a'zolari va yurak mushaklarining falajlanishi sodir bo'lishi mumkin. O'limning eng ko'p uchraydigan sababi nafas olish mushaklari spazmi tufayli bo'g'ilish, ikkinchi o'rinda yurak falajligi sanaladi. Ba'zi hollarda o'lim sababi qoqsholdan keying asorat sifatida rivojlanadigan miokard infarkti, pnevmoniya, sepsis, o'pka arteriyasi embolizatsiyasi va boshqa kasalliklar bo'lishi mumkin.

Qoqshol patogenezida metabolik buzilishlarga katta ahamiyat beriladi. Bu kasallikning inkubatson davri o'rta hisobda 6-14 kundur. Kasallik birdan umumiy holsizlik, bezovtalanish va chaynov mushaklarining og'riqli talvasasi, keyin yuz mushaklarining talvasali qisqarishi va tez orada og'riq gavda mushaklariga o'tishidan boshlanadi. Shuning natijasida gavdaning yoyga o'xshab egilishi, qorinning keskin taranglashishi, nafas buzilishlari rivojlanadi, so'lak oqishi qayd qilinadi va harorat o'rtacha ko'tarilgan bo'ladi. Qoqshol tutqanog'i kech paydo bo'lib, asfiksiya, qon aylanishining buzilishi, dizuriya (og'riqli siyish) kuzatiladi, shu bilan bir qatorda bolalarda ko'pincha beixtiyor siyib qo'yish, axlat ajralishi ko'riladi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda esa qoqshol tarqoq turda kechadi, so'rish akti buziladi, bezovtalik, yig'loqilik paydo bo'lib, bunga talvasalar qo'shib ketadi. Ilk bor tremor, blefarospazm qayd qilinishi mumkin.

Kasallik klinik belgilarining og'ir-yengilligiga qarab, xastalikning yengil, o'rta, og'ir va o'ta og'ir turlari tafovut qilinadi.

Quyida uning eng ahamiyatli turlariga e'tibor qaratamiz:

- Brunner bosh qoqsholi yoki bulbar qoqshol, kasallikning eng og'ir shakli bo'lib, bunda kasallik orqa miyaning yuqori qismlari va uzunchoq miyaga ta'sir qiladi. Qoida tariqasida, bosh va bo'yin jarohatlaridan keyin yuzaga keladi.

- Mahalliy qoqshol kam uchraydi, asosan ilgari emlangan odamlarda qayd qilinadi. Bu shakl butun organizmga ta'sir qilmaydigan mahalliy falajliklar, umumiy talvasalar yo'qligi bilan tavsiflanadi. Ko'pincha umumiy (yalpi) qoqshol shakliga o'tadi.

- Roze bosh qoqsholi. Mahalliy qoqsholning bir turi, asosan jarohat tomondagi yuz nervining falajlanishi bilan namoyon bo'ladi.

Yangi tug'ilgan chaqaloqlar esa umumiy qoqshol bilan og'riydilar.

Ushbu kasallikni og'ir o'tishini oldini olish va o'lim holatlarini kamaytirish uchun avvalo shikastlanish anamnezida jarohatning ifloslanish ehtimoli borligiga ahamiyat berish zarur. Boshqa ko'plab kasalliklardan farqli o'laroq, qoqsholga odatda laborotoriya sinovlari orqali tashxis qo'yilmaydi. Tashxis bemorni tipik-klinik alomatlariga asoslab qo'yiladi. Tashxislashni erta va aniq amalga oshirish uchun qoqsholni strixnindan zaxarlanish, isteriya, alveolyar yoki ensa absessidan (trizm), spazmofiliyadan ajrata olish lozim. Chaqaloqlarda esa qoqsholni tug'ruq natijasida kelib chiqadigan shikastlanishlardan farqlay olish kerak.

Davolash bemor alomatlari og'irligiga bog'liq. Tashxislashdan so'ng bemorga qoqsholga qarshi maxsus immunoglobulin mushak orasiga 6 ml, 0,5 ml dan anatoksin bir kunda uch marta 3-5 kun davomida oralatib yuboriladi. Shu bilan bir qatorda yurak-tomir vositalari va penitsillin kabi antibiotiklar ham tayinlaniladi. Ba'zi hollarda o'lik yoki infektsiyalangan to'qimalarni olib tashlash uchun debridensiya deb nomlangan jarrohlik usuli yoki bakteriya manbasidan halos bo'lish uchun yarani tozalash usullaridan foydalanish mumkin. Agar bemorda disfagiya (yutishda qiyinchilik) va nafas olishda qiyinchilik kuzatilsa, u holda nafas olish yordam beruvchi truba kerak bo'lishi mumkin. Kasallik og'ir kechganda bemorlar respublika, viloyat va shahar shifokorlarining ixtisoslashtirilgan bo'limlariga yotqiziladi.

Xulosa: Qoqshol kasalligini bolalar va chaqaloqlar hamda umumiy aholi orasida oldini olish uchun davlatimiz tomonidan maxsus profilaktika choratadbirlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular o'z ichiga bo'g'ma, ko'k'yo'tal va qoqsholga qarshi assotsirlangan vaksina AKDS vaktsinasi tarkibiga kiradigan qoqshol anatoksini bilan faol immunlash, shuningdek, shikast yetganda emlanmaganlarni faol-sust immunlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Vaktsina CDC ma'lumotlariga ko'ra juda samaralidir. So'nggi 10 yil ichida emlangan yoki kuchaytiruvchi olgan to'liq emlangan odamlarda qoqshol kasalligi haqida xabarlar juda kam uchragan. Qoqsholga qarshi emlash bolalar va chaqaloqlarda profilaktik emlash kalendariga ko'ra, 2,3,4 oyliklarda, qayta emlash esa 16 oylikda qoida asosida amalga oshiriladi. Ushbu Qoida va Me'yorlar 1996-yil 29- avgust kundagi "Fuqarolarning sog'ligini saqlash to'g'risida" gi, 1992-yil 3-iyul kundagi " Davlat sanitariya nazorati to'g'risida" gi Qonunlar va Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ning olib borayotgan immunizatsiya siyosati asosida ishlab chiqilgan. Immunoprofilaktikaning maqsadi spetsifik profilaktika vositalari orqali boshqariladigan yuqumli kasalliklar bilan kasallanishni batamom tugallash, kasallanish va o'lim holatlarini oldini olishdan iborat.

O'z vaqtida to'g'ri davolanish, salomatligimizga bee'tibor bo'lmaslik, doimo ogoh bo'lish va atrofdagilarga infektsiya manbai sifatida xavf solmaslik har doim eng yaxshi qarordir. Agar siz o'zingizda qoqshol kasalligi bor deb shubha qilsangiz darhol shifokoringizgaa murojaat qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Maxmudov O.S. Bolalarning yuqumli kasalliklari – Toshkent, 1995.
2. Musaboyev I.Q., Yuqumli kasalliklar – Toshkent, 1988.
3. Usmonov M.Q., Epidemiologiya – Toshkent, 1995.
4. Muhamedov I., Eshboyev E., Zokirov N., Zokirov M., Mikrobiologiya, immunologiya, virusologiya – Toshkent, 2002
5. Qoqshol kasalligi sabablari, alomatlari, yuqish yo'llari, davolash va oldini olish. <https://med360.uz/kasalliklar/qoqshol/>. (murojaat 2025 yil 10 aprel)
6. <http://bilim.tma.uz/articles/77>. (murojaat 2025 yil 12 aprel)



INNOVATIVE
WORLD